

Distribution Geography of Plants and Animals in Khorezm Region

Matsopoyeva Alo Quadrat qizi

2nd year student of Urgench State University.

Hayitova Onaxon Abdirim qizi

2nd year student of Urgench State University

Annotation: Information on the distribution geography of plants and animals in Khorezm region.

Keywords: Lower Amudarya, Kyzylkum, Khorezm, animals, plants, agriculture, tugai forests, deserts.

Quy Amudaryo rayonining, shu jumladan yuqori va pastki Amudaryo deltasining Qiziljar massivining va Qizilqum Xorazm viloyatining Amudaryoning uning qirg'og'ida joylashgan Qizilqum massivi cho'lining hayvonot dunyosiga o'xshaydi. Viloyat territoriyasi Adaryoning ikkala qirg'og'ida joylashgani uchun uning hayvonot dunyosi xilma-xildir. Quy Amudaryo qirg'oqdarida to'qayzor va qamishzorlarda yashaydigan hayvonlarning ko'pchilik qismi Xorazm viloyati territoriyasida ham uchraydi. Xorazm viloyati hayvondarining bir qismi xalq xo'jadigida foydali hisoblansa, bir qismi aksincha dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklari uchun zararlidir. Shular jumlasidan viloyat territoriyasida chiyabo'ri shoqol, yovvoyi cho'chqa, to'ngg'iz, tulki, qashqir, bo'ri, bo'rsiq, qamish mushigi, quyon, kiyik, suvlarda esa qimmat baholi muyna beradigan ondara hayvonlari uchraydi. Yuqorida qayt kilingan hayvonlarning anchasi xalq xo'jaligida katta ahamiyatga ega. Shundan muyna beradigan ondara, tulki, bo'rsiq, ayrim yillarda saygoq, shuningdek go'sht beradigan cho'chqa, kiyik, quyon va xakozolar uchraydi. Amudaryo deltasida yashaydigan hayvonlarning ko'pchilik qismi viloyat territoriyasida uchraydi. Sababi, viloyat territoriyasi Amudaryo deltasidagi to'qayzorlarga va deltada ekiladigan sholi, sabzavot va poliz va boshqa donli ekinlar maydonlariga yaqin bo'lgani uchun yuqorida aytilgan hayvonlar asosan chiyabo'ri, yovvoyi cho'chqa, bo'rsiq, quyon, tulki va boshqa hayvonlar dalalarda madaniy ekinlar ekilgandan keyin, ko'pincha kuz oylarida ekinlar hosilga kirgan paytlarda yovvoyi hayvonlarning ko'plab xo'jalik dalalariga qirib kelishi kuzatiladi. Bu hayvonlar ko'pincha yovvoyi cho'chqa, bo'rsuk va quyonlar viloyat qishloq xo'jaligiga katta zarar keltiradi. Bu hayvonlar bahor paytida endi unib kelayotgan nihollarga zarar keltirsa ko'pincha kuzda hosilga qirib turgan yem-xashak, ko'pincha sholi, makkajuxori, poliz va sabzavot ekilgan dalalardagi pishib hosilga qirib turgan poliz-qovun va tarvuz, xilma-xil sabzavotlarini yeb, ekin dalalarini poyxon qilib tashlaydi. Buning natijasida viloyat iqtisodi katta zarar ko'radi. Bu hayvonlar dalalarga ko'pincha kechasi tunning karongi paytdarida ularni xaydash va otish uchun noqulay paytlarda qirib keladi. Zararkunanda hayvonlar ichida viloyat xo'jaligiga eng katta zarar keltiradigan hayvon yovvoyi cho'chqa hisoblanib, ular ayrim yillarda viloyat territoriyasiga ko'plab qirib kelishi natijasida ular eqilgan dalalarni kavlab xudoy pluxlar yordamida xaydalgan yerlarga o'xshatib quyadi. Ular pishib turgan tukanak mevali madaniy darning sholi ekin dalalarini o'z tumshuqlari bilan kavlab, sholi dalalarida ag'nab yotishi natijasida sabzavot va sholi ekinlariga katta zarar keltiradi. Natijada bu madaniylardan olinadigan hosil miqdorining kamayib kyetishiga olib keladi. Shuningdek, yovvoyi cho'chqa, bo'rsiq, chiyabo'ri va quyondar hosilga berib turgan dalalardagi poliz va sabzavot ekinlariga katta zarar etkazadi, ular dalalardagi pishib turgan hosillarni yeb, paykallarni ishdan chiqarib tashlaydi. Bundan tashqari yana kolxoz va ularda yashovchi xonadonlar iqtisodiga chiyabo'ri, tulki va ayrim yillarda bo'rilar xonadonlarning va xo'jaliklarning qo'y, echki va tovuqlarini ovlab ketib, ko'p zarar tekqizadi. Viloyat territoriyasida uchraydigan kalamush, yumronqoziq va boshqa kemiruvchi hayvonlar ham doimo ekin maydonlariga zarar ko'rsatadi. Shu bilan birga bu hayvonlar xo'jaliklarning g'alla, omixta va boshqa oziq-ovqat saqlaydigan omborlariga, xonadonlarning don va boshqa mahsulotlar saqlaydigan omborlariga ham katta zarar keltiradi. Bu zararkunanda kemiruvchi hayvonlardan qutilish uchun xo'jaliklar don, yem, omixta, urug'lik donlar chigit va boshqa oziq-ovqat saqlanadigan omborlariga, ularni o'ldiradigan zaharli ximik moddalar quyiladi. Bu moddalar faqat sichqonlarga zarar keltirib qolmasdan, g'allani, yem va omixtani saq-laydigan omborlarga shuningdek chorvamolariga va odamlarga ham katta zarar keltiradi. Viloyat territoriyasida ko'l, zovur va sug'orish sistemalari bo'ylarida

uchraydigan ondatra va kalamushlar ham chorvalarning yem-xashak bazasiga ancha-muncha zarar keltiradi. Ondatra ko'llarda, zovur va kanal bo'ylarida uchraydigan pichan va boshqa suvda o'sadigan xashakkibop o'simliklarning ildizlarini qirqib tashashi natijasida, o'simliklar poyasining yuqori tamoni qirqib nobud bo'lishiga olib keladi. Viloyat suvlarida sezon, ilon baliq, laqqa baliq, suven, beli amur, tolstolobik va boshqa qimmat baholi baliqlarga boy. Asosan viloyat territoriyasida xar xil foydali qushlar ham uchraydi. Shular jumlasidan, qirg'ovul, ko'k kaptar, o'rdak, g'oz va boshqa qushlar. Bular viloyatning aholisini oz bo'lsa ham parranda go'shti bilan tamin yetishda muhim ro'l o'ynaydi. Xorazm viloyatining o'simlik dunyosi viloyat chorvachiligini rivojlantirishda, chorva mollarini yayalovlarda boqishda va chorva uchun qish oylariga o't-xashaklarni tayyorlashda katta ro'l o'ynaydi. Shu bilan birga dag'al o'simliklar dehqonchilikda undiriladigan ko'k o'tlar bilan qo'shib sifatli senaj tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Viloyat territoriyasida ko'pincha Amudaryo poymalarida, to'qaylarda o'sadigan yog'ochlar, shu jumladan turongul va qamishlar viloyat xalqining va xo'jalik omborlarinin, uy-joy qurilishida qurilish materiallari sifatida keng foydalaniladi. Viloyatning Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan Qizilqum qisimda uchraydigan yaylov o'simliklari mayda mol chorvachiligini, shuning ichida qoraqulchilikni rivojlantirishda, shuningdek, Qizilqum massivida o'sadigan butali o'simliklar-saksovul, qandim va cherkes kanal va zovur sistemalarini, shuningdek, transport kommunikatsiyalarini esib yuruvchi qumlarning bosishini to'xtatishda va viloyat ekologik sharoitini saqlashda katta ahamiyatga ega. Xorazm viloyatining o'simlik dunyosi viloyat territoriyasini suvlanishiga, yer osti sizat suvlarining past yoki baland bo'lishiga qarab joylashadi. Shu sababdan Amudaryo poymalari, shuningdek, ko'pincha sug'orilib turiladigan va yer osti suvlarining sathi baland bo'lgan territoriyalari o'tloqli yaylov o'simliklariga boy. Viloyatning yer osti suvlari sathi yer yuzasiga yaqin bo'lgan Amudaryo qirg'oqylarida o'tloqli o'simliklar assosatsiyasi va butali, yog'och va qamishdan iborat bo'lgan to'qayli yerlar uchraydi. Bu yerlar yog'och va qamish qurilish materiallarini tayyorlashda, viloyat qaramolchiligini boqishda keng foydalaniladi. Bu territoriyalarda uchraydigan o'simliklarga qizilmiya, bo'yan, pichan, yontoq, uruk, ajriq, oqbosh, yog'och o'simliklardan torong'il, jiyda, tol va boshqalar ko'p uchraydi. Viloyatning tup-roqg'i sho'r yerlarda qorabarak, baliqko'z, tuyasingir, sho'ra va boshqa o'simliklar uchraydi. Viloyatning o'simlik dunyosiga eng boy zonasi Amudaryo poymasi va uning ko'llari bo'lib, bu yerlar chorvaga dag'al xashak tayyorlashda foydalaniladi. Dag'al xashaklar ko'pincha beda, makkajuxori va ok juxari poyasidan qish oylariga chorva uchun tuzimli senaj tayyorlashda keng foydalaniladi

Xulosa:

Viloyat territoriyasidagi yaylovlarni unimdor o't-xashak bazalariga aydantirish uchun tabiiy yaylovlarni sug'orib to'rish va ularga qo'shimcha o't ekinlarining urug'larini ekib, yaylov hosillardigini orttirib to'rish zarur. Umuman viloyat chorvachiligini rivojlantirish uchun o't-dala almashlab ekish agrotexnikasini joriy yetish bilan birga turli vitaminlarga va qoratin moddasiga boy bo'lgan chorvalarni boqdigan sunviy yaylovlar yaratish zarur

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.ziynet.uz.
2. Итоги социально-экономического развития Хорезмской области за январь-декабрь 2010 года. Стат. Сборник, Ургенч-2011.
3. Z.Tojiyeva. Aholi geografiyasi.
4. B.A. Bahritdinov, S.A. Zakirova G.A. Abdurahimova, S.E. A 'zam
5. J a h o n i j t i m o i y - i q t i s o d i y g e o g r a f i y a s i .
6. De Blij H. J., Muler P. Geography, Regions and Concepts. John Wiley & Sons, 1997.